



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO'Z YASALISHI MASALARINI O'ZBEK TILSHUNOS OLIMLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Ma'mura Mirzayeva Erkin qizi.

SamDU 2-bosqich magistrant talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7990482>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil
Ma'qullandi: 28-May 2023 yil
Nashr qilindi: 31-May 2023 yil

KEY WORDS

yasama so'z, morfemika, affiks, morfologiya, morfema, yasama va tub ot.

ABSTRACT

Ushbu maqolada so'z yasalishi masalasini ayrim o'zbek tilshunos olimlari tomonidan o'rganilishi hamda ularning fikr mulohazalari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, Alisher Navoiyning Muhokamat ul-lug'atayin asaridagi ayrim yasama so'zlar va qomusiy olim Mahmud Qoshg'ariyning XI asrda yaratilgan „Devonu lug'tit turk“ asaridagi ayrim yasama so'zlar va ular qanday usulda yasalganligi aytib o'tiladi.

So'z yasalishi masalasi ko'plab tilshunos olimlar tomonidan qiziqib kelingan va o'rganilgan. Xususan, A. G'ulomovning so'z yasalishi haqida o'z ilmiy izlanishlari va tadqiqotlariga tayanib „So'z yasalishi“ tilshunoslikning alohida hodisa va bo'lim sifatida ilk bor XX asrning 40-yillarida shakllangandi. Olim o'zining ilmiy kitoblarida so'z yasalishi bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini aytib o'tgan.

Muallifning 1949- yilda nashr qilingan „O'zbek tilida so'z yasalishi yo'llari haqida“ nomli maqolasida bu muommoga doir bir qator masalalar o'sha davrdagi tilshunoslik nazariyalari qo'lga kiritgan yutuqlari asosida ilmiy yechimini topdi.

A. G'ulomov so'z yasalishi hodisasining shu kunga qadar tilshunoslikning qaysi bo'limda o'rganilishi o'rganilgani haqida fikr yuritir ekan, u hind- ovropa tilshunosligi andozalari asosida morfologiya tarkibida o'rganib kelganligini tanqidiy baholaydi va bu hodisani hosilasi leksemani tug'dirganligi tufayli so'z yasalishi tilshunoslikning leksikologiya bo'limiga ko'proq dahldor ekanligini bayon qiladi.¹

A. G'ulomovning o'zbek tilshunosligida ilk bor so'z yasalishi masalalarini „O'zbek tili grammatikasi. I tom, Morfologiya“ kitobida alohida bo'lim sifatida o'rganib chiqdi va bu orqali so'z yasalishi bo'limining shakllanishi, bu bo'limninga doir atamalarning tizimining izga solinishiga xizmatlari juda katta bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligida so'z yasalishi masalalarini o'rganigan olimlardan yana biri A. Hojiyev bo'lib u o'zining „So'z yasalishi tizmi“, „O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari“ kitobida so'z yasalishini alohida soha sifatida morfologiyadan ajratilgan holda o'rganilishini ma'qullamaydi. Bu rus grammatikasidan to'g'ridan to'g'ri ko'chirilganligini va bu o'zbek tilshunosligiga mos kelmasligi haqida shunday deydi: „...rus tilshunosligi va unga oid adabiyotlar ta'sirida o'zbek tilshunosligida ham so'z

¹Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: «Ўзбекистон», 194.б .

yasalishi alohida soha sifatida morfologiyadan ajratildi. Lekin bunda soʻz yasalishi bilan soʻz shakli alohida tizimni tashkil etishi asoslangan holda ish koʻrilgani yoʻq va shunday boʻlishi tabiiy edi. Chunki oʻzbek tilshunosligida, hatto soʻz yasalishiga oid asosiy tushunchalar, ularning mohiyati, soʻz yasalish jarayoni va u bilan bogʻliq hodisalarning mohiyati kabilar yoritilmagan edi².

Bu fikrlardan farqli ravishda U. Tursunov, A. Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar birgalikda chiqargan „ Hozirgi oʻzbek adabiy tili “ kitobida ham soʻz yasalishi boʻyicha ishlar olib borishgan va soʻz yasalishi terminini ikki maʼnoda qoʻllanilishini yaʼni soʻz yasalish tarkibi va usuli oʻrganadi deyilgan. Bundan tashqari yuqoridagi muommoli vaziyatga yaʼni soʻz yasalishi alohida boʻlim sifatida oʻrganilishi yoki oʻrganilmasligiga quydagicha fikr keltirishgan: „ Til lugʻat tarkibining yangi yasalgan soʻzlar hisobiga boyib borishi, soʻz maʼnosining oʻzgarishi, uni boshqa maʼnoda ishlatilish yoʻli bilan soʻz hosil qilish – bular soʻz yasalishining leksikologiya bilan aloqadorligini koʻrsatadi. Grammatika esa soʻz yasash jarayonini boshqaradi, yangi yasalgan soʻzlarning qaysi soʻz turkumiga tegishli ekanligini belgilaydi. Har bir turkum doirasida soʻz yasashning shakl yasash bilan aloqada ekanligi, soʻz yasalishi va shakl yasalishida koʻpicha bir xil yoki bir – biriga yaqin affikslarning ishlatilishi esa soʻz yasalishi boʻlimining bevosita morfologiya bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Shuningdek , soʻz yasashning boshqa usullari uning fonetika va sintaksis bilan munosabatda ekanligini koʻrsatadi”³

Bundan koʻrinadiki, olimlar soʻz yasalishi har bir boʻlim bilan uzviy aloqadorligini va ular bir-biridan ayro holda oʻrganib boʻlmasligini taʼkidlashadi. Haqiqatdan ham tilshunoslikning qaysi bir sihasini oladigan boʻlsak biri ikkinchiga aloqador yoki bir-birini toʻldirib turadi.

Oʻzbek tilshunosligida soʻz yasalishini oʻrgangan olimlardan yana bir Yo. Tojiyev. Olim „ Oʻzbek tili morfemikasi “ kitobida ham soʻz yasalishi va shakl yasalishi haqida aytib oʻtilgan va koʻp boʻgʻinli hozirgi oʻzaklarning koʻpi tarixiy jihatdan tahlil qilinganda, ikki yoki undan ortiq morfemalardan iborat ekanligini aytib quydagi misollarni keltiradi: yomgʻir (yogʻ-im -ir), ket-in(ketin), yostiq (yot-si-q), qishloq (qish-qis-la-q), teskari (ters- ga-ru) ilgʻor (il-gʻa-ga-r) va boshqalar. Biz bilamizki, hozirgi kunda bu soʻzlar tub soʻzlarga aylangan yaʼni qotib qolgan lekin bu soʻzlarni etimologik jihatdan tahlil yordamida ularni aniqlash mumkin. Lekin olim shunday soʻzlar borki, ularni etimologik jihatdan ham aniqlash qiyinlini bu soʻzlarni tarkibida affiks morfema borligiga qarab, garchi uning manosi aniqlanmasada u tarixan yasama soʻz boʻlishi mumkinligini aytadi va bunday soʻzlarga quydagilarni misol qilib „semir” soʻzini misol qiladi. Undagi -ir qoʻshimchasi alohida morfema sifatida keng qoʻllaniladi: gapir, koʻkar, eskir, oqar, qizar. Baʼzi soʻzlar tarkibida u oʻzak tarkibiga singib ketga holda ham uchraydi: qayir, buyur, ayir, ogʻiz- ir kabi.⁴

Darhaqiqat, baʼzi soʻzlarni biz bugungi kunda tub soʻz sifatida ishlatamiz lekin ular tarixan shakllanishlar natijasida yasama soʻz holidan tub soʻz holiga aylanib qolganligini olim kitobida asoslab bergan.

² Hojiyev A. Oʻzbek tili soʻz yasalishi tizimi, T., “ Oʻqituvchi “ nashriyoti, 2007, 4- bet.

³ Tursunov U. Hozirgi oʻzbek adabiy tili, T., “Oʻqituvchi “ nashriyoti, 2010, 35-bet.

⁴Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси. Тошкент.1992.19 бет.

Soʻz yasalişini hozirgi va tarixiy jihatdan solishtirgan tilshunos olimlardan yana biri G. Abdurahmonov „ Qadimgi turkiy til” kitobida hozirgi oʻzbek tili morfologiyasi hamda qadimgi turkiy til morfologiyasini quydagicha xulosalab bergan va ularni quydagicha izohlaydi:

1.Xozirgi zamon morfemalari qadimgi turkiy til tildagiga nisbatan miqdori koʻp va mazmunan boy.

2.Hozirgi oʻzbek tilida bor boʻlgan yoki alohida element sifatida oʻqilmagan morfemalar ham bor.

3.Soʻz va forma yasovchi chet el morfemalari yoʻq.

4.Murakkab morfemalar juda kam.⁵

Albatta olimning ushbu xulosalarga tayanishida qadimgi yodnoma, bitiktoshlar hamda tarixiy yozilgan asarlar katta tayanch manba sifatida xizmat qilganligi shubhasiz. Qoʻshimcha sifatida shuni ham takidlash joizki qadimgi turkiy til yodnomalarida hozirgi hamma soʻz turkumlari hamda ularning asosiy shakli mavjud boʻlgan hamda bugungi tilni yanada boyishiga asosiy ustun sifatida xizmat qiladi desak hech mubolagʻa boʻlmaydi nazarimda.

Soʻzlarni yasalişini tarixiylik va zamonaviylik jihatdan oʻrganib tahlil qiladigan boʻlsak bevosita tarixiy yodnomalarga murojat qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Shu oʻrinda Alisher Navoiyning 1499-yilda yozib tugatilgan „Muhokamat ul-lugʻatayin” asarida ham yasama soʻzlar haqida aytib oʻtgan unga koʻra -chi affiksi mansab nomlarini yasashi haqida: qurchi, suvchi, xazinachi, yurtchi, tamgʻachi, jebachi, yoʻrgʻachi, holvachi, qoʻychi, kiyikchi, quvchi kabi soʻzlardir. Bizga maʼlumki, Navoiyning ushbu asari ikki tilni solishtirgan holda turk tilining leksik, morfologik va boshqa imkoniyatlari fosh tilidan qolishmasligini bir qancha misollar yordamida isbotlagan.

Darhaqiqat, turk tili bir necha asrlar davomida oʻz shakliga ega boʻlib kelgan bunga misol tariqasida XI asr yodnomalaridan biri boʻlgan Mahmud Qoshgʻariyning „Devonu lugʻatit turk “ kitobiga alohida toʻxtalib oʻtish joiz deb hisoblaymiz. Mahmud Qoshgʻariyning qomusiy asari orqali biz oʻzbek tilining shakllanish darajasini, ilk namunalarini koʻrishimiz mumkin. Olim yasama soʻzlarni ikkiga ajratadi yaʼni otdan yasalgan yasama soʻzlar hamda feʼldan yasalgan yasama soʻzlarga unga koʻra: otlar ikki turli yaʼni tub hamda yasama otlardan iborat boʻlishini aytib oʻtgan. Feʼllardan yasalgan otlar feʼl oxiriga oʻn ikki harfdan yetti harfgacha boʻlgan soʻzlar mavjud ekanligini taʼkidlab oʻtadi. Olimning fikricha, otlar ikki turli: yasama ot va tub otdan iborat boʻladi.Feʼllardan yasalgan otlar feʼl oxiriga oʻn ikki harfdan birini qoʻshish bilan yasaladi. Qilich, oq kabi otlar tub otlar sirasiga kiradi. Bu xil otlar boshqa soʻzlardan kelib chiqmagan. Yasama otlar boshqa soʻzlardan kelib chiqadi. Bularning baʼzilari turmushda qoʻllanib, eshitilib yurilgan boʻlsa, baʼzilari aniq emas, qiyosiy asosdadir. Men isteʼmoldagilarini berib, muhmallari (isteʼmoldan chiqqan, maʼnosi noaniq) ni tashladim. Lekin mukammallarni solishtirib aniqlash mumkin boʻlarlik qilib, quyidagicha bir qoida yaratdim: feʼllardan yasaluvchi otlar quyidagi oʻn ikki harfdan birining qoʻshilishi bilan tuziladi. ج غ ش ل م لا ش غ ج . „Devonu lugʻotit turk” da keltirilgan soʻzlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan, tub otlar koʻproq ikki va uch harfli soʻzlardan tashkil topgan.

Yasama otlarga –Devondan misollar keltirib oʻtamiz:

otači- ot(dori, davo) ota+ či = tabib 28-b

2.üzlüg- yogʻli, üz (yogʻ) + lüg= **üzlüg mün-** yogʻli shoʻrva 29-b

3.oq yılan - oʻzini odamga otuvchi ilon 29-b

⁵ F. Абдурахмонов. Кадимги туркий тил. Тошкент.1982. уқувчи.26-бет.

- 4.emči- tabib, em(davo) + či.30-b
 5.uđu (uyqu)+ dim= uđidim- uxladim (fonetik hodida tovush tushishi)
 6.öň (rang)+ lüg = rangli yaşil öňlüg ton (yashil rangli kiyim) 31-b
 7.eş(o'rtoq, hamroh) + lig= eşlig -alohida tabiatli kishi 33-b
 8. ög (aql, ziyraklik)+ä = ögä- Yoshi ulug', aqli kishi 33-b
 9.ügit(bug'doy va shunga o'xshash narsalarni yanchish)+či=ügitçi- tegirmonchi35-b
 10.ölüt (bir birini o'ldirish) +či- o'ldiruvchi kimsa 35-b
 11.ağır (og'ir)+ liğ = ağırliğ kişi (bek tomonidan hurmat qilinadigan kishi).
 12. ağır+la =(siylamoq) Täñri meni ağıriladi, ağır ađaq amrudı (og'ir oyoqli kishi sust yuursa ham manzilga yetadi).35-b
 13.öç (o'ch,qasos)+ üt = dushmanlik34-b
 14.uçuz (har bir tuban narsa)+la= yerga urmoq, xo'rlamoq, Beg anı uçuzladı.36-b
 15.öp+üş=o'pish38-b
 16.atiř+ma = otishma 38-b
 17. uwdi +a=bir turli taom 18-b
 18.uquř(o'qish,anglash tushinish)+luğ= uquvli, fahm-farosatli kishi.38-b
 19..el(yarashuv,kelishuv)+bo'ldı= iki beg birlä el boldı- ikki bek bir-biri bilan yarashdi.33-b
 20.ulug'+luq=ulug'lik
 Uluğluquğ bulsa-sen eđgü qilin,
 Bolğil kiřig beglär qatın yaşı ulan. 39.b
 21.iliğ (iliq)suw39.
 22.açuq(ochiq) açuq qapuğ, kök,iř 39-b.

Xulasa qilib aytadigan bo'lsak yasama so'zlarni o'rganish bir necha asrlar davomida tilshunos olimlar tomonidan o'rganilib kelingan hamda ko'plab nodir ilmiy asarlar yaratilib kelinmoqda. Bunga misol sifatida Alisher Navoiyning Muhokamat ul-lug'atayin , XI asrda yozilgan qomusiya sarlardan biri bo'lmish „Devonu lug'atit turk" asari yoki XX asrning 40-yillarida yozilgan ilmiy tilshunoslikka oid kitoblarni misol qilishimiz mumkin . Ushbu asarlar turkiy tilning ilk taraqqiyot bosqichida til sofligi tamoyili yetakchilik qilgan, tilning barcha sathlari, jumladan, lug'aviy va so'z yasalishi sathida ham asosan ichki manba va vositalar asosida ish ko'rilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов Н. Махмуд Кошғарий – туркий тилларда ҳарф тушиш қондаси ҳақида // Махмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Халқаро конференция материаллари. 2002 йил 25-26 ноябрь. – Самарқанд, 2002, -Б.19.
2. Абдурахмонов Ф. «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. №6. -Б.49-51.
3. Абдурахмонов Н. Равишдош тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1971. №5. -Б.45-50; ILMIY AXBOROTNOMA FILOLOGIYA 2021-yil, 6-son <http://research.samdu.uz/> 81
4. Абдурахмонов Н. Тарихий синтаксис. - Тошкент: Фан, 1974.
5. Абдурахмонов Н. Ўзбек тили фонетикаси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1963. №2. -Б.30-36.
6. Девону луғотит турк. Индекс-луғат (Ф.Абдурахмонов ва С.Муталлибовлар иштироки ва таҳрири остида). – Тошкент: «Фан», 1967. -Б.477-525. (Ҳаммуаллиф Шукуров Ш.)

7. Абдурахмонов Н. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. - Тошкент: «Ўқитувчи», 1973. (Ҳаммуаллиф Шукуров Ш.)
8. Абдурахмонов Н. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. - Тошкент, 1999.
9. Абдурахмонов Н. Ўзбек тили ва адабиёти. Қўлланма. - Тошкент: «Ўзбекистан», 1998. (Ҳаммуаллиф Мамажонов С.) ва бошқ.
10. Дадабоев Ҳ. «Девону луғотит турк»даги туркий тилларга хос фонетик ва лексиксемантик хусусиятлар ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. – Тошкент: «Университет», 2008. -Б.3-9
11. Девону луғотит турк. Индекс-луғат (Ғ.Абдурахмонов ва С.Муталлибовлар иштироки ва таҳрири остида) – Тошкент: «Фан», 1967. – 542 б.
12. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I том. (Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов). - Тошкент: «Фан», 1960.
13. Маҳмуд Кошғарийнинг «Девону луғотит турк» асари ва унинг туркий халқлар маданияти ҳамда жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. Халқаро конференция материаллари. 2002 йил 25-26-ноябрь. – Самарқанд, 2002. –153 б.
14. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент: «Ижод» нашриёт уйи, 2006;
15. Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1954
16. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2002, -Б.30-40,42.
17. Худойбердиев Ж. Маҳмуд Кошғарий ҳаёти ва «Девону луғотит турк» асарининг ўрганилиши. – Тошкент, 2010.
18. Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси.Тошкент.1992.19 бет.